

SIYOSAT NAZARIYASI VA METADOLOGIYASI HAQIDA

Ilxomov Nasimjon

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti "Siyosatshunoslik" yo'nalishining
3-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Siyosatshunoslik haqida va uning bir qismi bo'lgan siyosat nazariyasi rivojlanishi va qonuniyatlari toifalari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Siyosatshunoslik, siyosat, saylov, dominant, determinant, verifikatsiya, ekspelitistik, operatsiyanlashuv, kvantifikatsiya, siyosiy institut.

Siyosatshunoslik - bu siyosat haqidagi fandır. Uning vazifasi:


- a) siyosatni o'z mohiyatiga ko'ra;
- b) namoyon bo'lishiga ko'ra o'rganishdir.

Natijada siyosat o'zining nazariy hamda amaliy qismlariga ega bo'ladi.

Siyosat hodisasi o'zining dominant va determinantligiga ega bo'lib, eng avvalo:

- siyosiy voqealik haqidagi bilimlarni shakllantirish;
- siyosiy taraqqiyot jarayonini tavsiflash;
- siyosatning konseptual apparatini yaratish;
- siyosatshunoslik tadqiqot metodologiyasi va usullarini ishlab chiqishdan boshlanadi.

Nazariy siyosat quyidagi qonuniyatlarga tayanadi:



Yuqoridagi qonuniyatlar nazariy siyosatda nima muhim, qanday ma'lum savollari orqali uning fundamentini yaratadi.

Siyosat nazariyasi o'zining makon va zamon qonuniyatiga asosan u yoki bu hodisasini tavsiflovchilik funksiyasini o'zgartirib boradi. Masalan: Siyosatshunoslik qanaqa fan? Degan savolga:

Fransuz olimi Jan-Anri Fanze: **“Siyosatshunoslik – bu saylovlar va siyosiy institutlarni o'rganuvchi fan”**(1915)

Geord.B: **“Siyosatshunoslik – bu konstitutsiyaviy huquq va davlat hokimiyatini o'rganuvchi fan”**(1989)

Devid Iston: **“Siyosatshunoslik – bu siyosiy institutlar va hukumat qarorlarini o'rganuvchi fan”** (2014)

Nazariy siyosat mustaqil gumanitar fan sifatida XIX asrning ikkinchi yarmida vujudga keldi.

Fan - bu bilish degan ma'noni ifodalab u o'zining nazariy va amaliy qismlariga ega bo'ladi.

Nazariy siyosatning asosiy toifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

O'rganiladigan muammoni shakllantirish

G'oyalarning rivojlanish yo'lanishini ishlab chiqish

Tadqiqotning kuzatuv chegaralarini aniqlash

Turli paradigmlar o'rtasida farqni aniqlash

1940-1950-yillar oralig'iga kelib nazariy siyosat o'rtasida siyosiy institutlarni o'rganish mutloq va nisbiylik qonuniyatini o'zgartirdi, natijada siyosiy jarayonlar tadqiqotchisi va ishtirokchisi uchun jixozlar qutisi nomini olgan metod atamasi shakllantirilgan.

Nazariy siyosat o'zining metodologiyasi orqali muammoning ilmiy jihatini asoslab berdi.

Ilmiy metod nazariy jihatdan asoslangan me'yoriy va kognitiv vositasidir. Ilmiy uslub esa muammoni hal etishga qaratilgan, biluvchi subyektini bilish obyektini bilan o'zaro bo'lishi.

Xulosa: Nazariy siyosat va uning metodologiyasi fani quyidagilarni tahlil qilish bilan bog'liq fandır:

- a) Siyosiy sohaning – umumiy, alohida va elementlarini;
- b) Turli yondashuv yoki olimlarning qarashi bilan bog'liq tizimli tahlil.

Siyosiy nazariya - siyosat, tushunchalar va siyosiy fikrning tarixiy ma'lumotlarini, siyosiy nazariya siyosiy hayot asoslarini tahlil qiladi va izohlaydi va

uning tamoyillari, tushunchalari va institutlarini baholaydi va ularni o'rganuvchi fan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://polisci.northwestern.edu/undergraduate/~:text=What%20is%20political%20science%3F,law%2C%20strategy%2C%20and%20war.> -
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Political_science
3. <https://www.polisci.washington.edu/what-political-science>
4. <https://www.britannica.com/topic/political-science>